siya va implikaturalar orqali yashirin ma'nolar yuzaga chiqadi. Qolaversa, yuklamalar va boshqa morfop-ragmatik vositalar muallif niyatini nozik ifodalashda muhim rol o'ynaydi.


**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati (References):**

(1). Арутюнова Н.Д. Истоки, проблемы и категории прагматики. Лингвистическая прагматика. М., "Прогресс", 1985, вып. 16, с. 23–39.

(2). Austin J.L. How to do Things with Words. Oxford, Oxford University Press, 1962, 166 p.

(3). Hakimov M. O'zbek pragmalingvistikasi asoslari. T., "Akademnashr", 2013, 176-bet.

(4). Leech G. Principles of pragmatics. London, New York, 1983, 251–253 p.

(5). Маслова А. Введение в прагмалингвистику. Москва, "Флинта", 2010, с. 40.

(6). Почепцов Г. Прагматика текста. Калинин, 1980, с. 7, 25.

(7). Пардаев А. Ўзбек тили ёрдамчи сўз туркумларининг лисоний тизимидаги ўрни ва лингвопрагматик таҳлили. Тошкент, "Фан", 2013, 129-бет.

(8). Searle J.R. Speech Acts: An Essay in the Philosophy of Language. Cambridge: Cambridge University Press, 1969, 202–204 p.

(9). Safarov Sh. Pragmalingvistika. Toshkent, O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2008, 286-bet.

(10). Турдибоев Т. Ўзбек тилида ёрдамчи сўзлар конверсияси. Филол. фан. номз. дис., Тошкент, 1996, 53-бет.

(11). Ван Дейк Т. Язык. Познание. Коммуникация. Москва, БКМ им. И.А.Бодуэн де Куртенэ, 2000, 309 с.

(12). Ван Дейк. Т. Вопросы прагматики текста. Новое в зарубежной лингвистике. Выпуск VIII. Лингвистика текста. Москва, "Прогресс", 1978, с. 258–335.

(13). Yule G. Pragmatics. Oxford University Press, 1996, 138–140 p.



**Eskalieva Shiyrin Asenbay qizi (Nukus davlat Pedagogika instituti tayanch doktoranti;**
**E-mail: shirineskalieva@gmail.com)**


## O'ZBEK VA INGLIZ TILLARIDA ISH YURITISHGA OID QO'SHMA TERMINLARNING YUZAGA KELISH TIPLARI


***Annotatsiya.*** *Mazkur maqola o'zbek va ingliz tillarida ish yuritishga oid qo'shma terminlarning yuzaga kelish tiplarini qiyosiy tahlil qilishga bag'ishlangan. Unda terminlarning sintaktik usulda hosil bo'lish jarayoni, ularning struktura modellari va semantik xususiyatlari o'rganiladi. Birikma tarzidagi terminlar muayyan yangi tushunchani ifodalab, ularni tashkil etuvchi qismlarning abstraktlik xususiyati zaiflashishi va ma'no aniqlik tomon siljishi bilan tavsiflanadi. Shuningdek, umumiy ma'noni ifodalovchi terminlar birikma shaklida qo'llanganda, u ifodalaydigan tushuncha ma'no jihatdan torayishi kabi jihatlari yoritib berildi.*



***Kalit so'zlar:*** *termin, o'zbek tili, ingliz tili, ish yuritish, sintaktik aloqa, birikma termin, ma'no torayishi, predtermin.*



**Ескалиева Ширин Асенбаевна (Нукусский государственный педагогический институт)**


## ТИПЫ ВОЗНИКНОВЕНИЯ СОСТАВНЫХ ТЕРМИНОВ, СВЯЗАННЫХ С ДЕЛОПРОИЗВОДСТВОМ, В УЗБЕКСКОМ И АНГЛИЙСКОМ ЯЗЫКАХ


***Аннотация.*** *Данная статья посвящена сравнительному анализу типов образования сложных делопроизводственных терминов в узбекском и английском языках. В ней изучается процесс синтаксического образования терминов, их структурные модели и семантические особенности. Термины в виде сочетаний выражают определенное новое понятие и характеризуются ослаблением абстрактности составляющих их частей и сдвигом значения в сторону точности. Также были освещены такие аспекты, как смысловое сужение понятия, которое оно выражает, когда термины, выражающие общее значение, используются в форме сочетания.*



***Ключевые слова:*** *термин, узбекский язык, английский язык, делопроизводство, синтаксическая связь, составной термин, сужение значения, предтермин.*



**Eskalieva Shiyrin Asenbaevna (Nukus state pedagigacal institute)**


## TYPES OF COMPOSITE TERMS RELATED TO CASE PROCEEDINGS IN UZBEK AND ENGLISH LANGUAGES


***Annotation.*** *This article is dedicated to the comparative analysis of the types of formation of complex administrative terms in the Uzbek and English languages. It examines the process of syntactic formation of terms, their structural patterns, and semantic features. Terms in the form of compounds express a certain new concept and are characterized by the weakening of the abstractness of their constituent parts and the*

*shifting of meaning toward precision. Aspects such as the semantic narrowing of the concept it expresses when terms expressing a general meaning are used in the form of a combination were also highlighted.*

***Keywords:*** *term, Uzbek language, English language, documentation, syntactic connection, compound term, narrowing of meaning, pre-term.*

**Kirish.** Til leksik tarkibning boyish imkoniyati masalasi zamonaviy tilshunoslikning ilmiy qiziqish obyekti bo‘lib, yuzaga kelishi turli manbaga ega bo‘lgan yangi birliklar muammosi bilan chambarchas bog‘liqdir. Deyarli barcha tillarda lug‘aviy birliklarni hosil qilishning ikkita asosiy usuli mavjud, ya’ni tilning o‘z ichki imkoniyatlari asosida so‘z yasovchi modellar (affiksal, sintaktik va semantik) orqali yangi so‘z va qo‘shma so‘zlar hosil qilish hamda boshqa tillardan so‘z o‘zlashtirishdir. Mazkur jarayon asosida tilning lug‘at boyligi rivojlanib, bu, o‘z navbatida, mazkur tilning terminologik tizimiga ham o‘z ta’sirini ko‘rsatadi. Aytish joizki, deyarli barcha tillar terminologik tizimlarida qo‘shma (birikma) terminlarning yasalish usuli sintaktik usul deb atalib kelinmoqda. Jumladan, o‘zbek va ingliz tillari ish yuritish terminologik tizimida ham ilmiy tushunchani ifodalovchi qo‘shma terminlar salmoqli o‘rin egallaydi. Tilshunoslikda so‘z yasalish sohasida har bir tilning ichki qonuniyatlar yaqqol ko‘zga tashlanadi. Shunday ekan, so‘zning yasalishi muayyan bir tilda avvaldan turg‘unlashgan yoki yangi asosning ajralishi va affiksal elementlarning qo‘llanishi bilan hamda so‘z yasash tizimining rivojlanishi bilan bog‘liq holda yangi paydo bo‘layotgan modellar va so‘z yasash tiplari bo‘yicha tilda namoyon bo‘ladi.

**Adabiyotlar tahlili.** Terminologik tizimlarda yangi terminlarning vujudga kelishi avvaldan mavjud bo‘lgan qo‘shma so‘z yoki birikmalar asosida yuzaga kelishi barchamizga ma’lum hodisadir. Demak, terminga asos hodisa – bu so‘zdir, qo‘shma terminlar umumadabiy tildagi qo‘shma so‘zlarga qiyosan shakllanadi. Buning isboti sifatida terminolog G.O.Vinokur “…har qanday so‘z, u qanchalik trivial bo‘lmasin, termin vazifasida kela oladi”, deb qayd etadi. Ammo shuni ta’kidlash lozimki, so‘z va termin farqli tushunchalar, ikkalasida ham nominativlik xususiyat mavjud, biroq termin definitivlik jihati bilan so‘zdan farqlanadi. Terminning ushbu jihatlarini A.Reformatskiy ilmiy jihatdan asoslab bergan [15;320-b.]. Demak, qo‘shma termin yasalishi o‘z tabiatiga ko‘ra, qo‘shma so‘z yasalishiga qiyosan o‘rganiladi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Ta’kidlash lozimki, qo‘shma terminlarning ayrim xususiyatlari, ya’ni, ot so‘z turkumi doirasida amal qilishi, uning tarkibidagi qo‘shma sifatlar birikma terminning aniqlovchi qismi sifatida qaralishi bilan qo‘shma so‘zlardan farq qiladi. Ayrim tilshunoslar “qo‘shma soz” termini o‘rniga “kompozit” terminini taklif qiladi [9;15–16-b.]. Jumaladan, “kompozit” va “so‘z birikmasi”ni farqlash maqsadida A.G.Sodiqova “kompozit”ning maqomiga oid mezonlarning kompleks to‘plami keltiriladi. Unga ko‘ra, qo‘shma so‘zlar quyidagi xususiyatlar bilan ajralib turadi: “1) semantik yaxlitlik; 2) nominativ yaxlitlik; 3) birinchi va ikkinchi komponentlarni erkin almashtirishning mumkin emasligi; 4) morfologik jihatdan yaxlit rasmiylashtirilgan bo‘lishi; 5) urg‘u (aksent) jihatidan yaxlit bo‘lishi; 6) murakkab so‘zning komponentlarini ajratib bo‘lmasligi; 7) murakkab so‘z komponentlari orasidagi ma’no munosabatlarining xususiyati: atributiv (belgilovchi), predikativ (xabar beruvchi), holli (vaziyatga oid), obyektli; 8) ma’lum bir so‘z turkumiga mansubligi; 9) muayyan struktur-semantik modellarga ko‘ra yaratilish imkoniyati; 10) murakkab so‘zlar yaratish uchun asos bo‘la olish qobiliyati” [6;71–72-b.]. Ta’kidlash kerakki, “qo‘shma so‘z” termini yuqorida olimlar qayd etgan “kompozit” terminining barcha xususiyatlarini o‘zida aks ettira oladi, shu sababli bu kabi tushunchani nomlashda “qo‘shma so‘z” termini qo‘llash maqsadga muvofiq. Shunday ekan, tilshunoslikdagi “qo‘shma so‘z” terminiga qiyosan terminolgik tizimlardagi xuddi shu tipdagi ikki yoki undan ortiq mustaqil so‘zlarning o‘zaro qo‘shilishi natijasida hosil bo‘lgan lug‘aviy birligiga ham “qo‘shma termin” terminini qo‘llash maqsadga muvofiq bo‘ladi.

**Tahlil va natijalar.** Umuman, tilshunoslikda so‘z yasalishida sintaktik va kompozitsion usullar yordamida qo‘shma so‘zlar yasalishi barchamizga ma’lum va bu usullar esa faqat qo‘shma terminlar tabiatiga mos keladi. Shuni aytish lozimki, terminologik tizimlarda birikma tarzidagi terminlar ham uchraydi. Yuqorida ta’kidlaganimizdek, avvalo, termin so‘z sanaladi, uning so‘zdan farqli jihatlari mavjud bo‘lib, uning malum bir xususiyati “so‘z va so‘z birikmasi” va “termin va birikma termin” tushunchalari o‘rtasidagi munosabatda namoyon bo‘ladi. N.U.Sadinova mazkur holatni shunday izohlaydi: “So‘z birikmasi adabiy til doirasida so‘z tushunchasiga teng bo‘lolmaydi, lekin birikma terminlar (so‘z birikmasiga teng bo‘lgan holatda) terminga tengdir, ya’ni termin so‘z birikmasiga tengdir. Ayni paytda terminlar yasalishi til qonun-qoidalarga bo‘ysunadi” [5;67-b.]. Aytish kerakki, mustaqillikdan keyin ish yuritishga oid hujjatlarning to‘liq o‘zbek tilida olib borilishiga ahamiyat berila boshladi, natijada xorijiy tillardan kirib kelga baynalmilal terminlar tarjima qilina boshlangandan keyin tilimizda birikma terminlar salmog‘i orta boshladi. Bu holatni esa tilimizga kirib kelgan yangi tushunchani bitta so‘z bilan ifodalash imkoniyati yo‘qligi bilan izohlash mumkin.

O‘zbek va ingliz tillari ish yuritish terminologiyasida so‘z birikmasiga teng bo‘lgan terminlar hamda so‘zga teng terminelementlarlarining yasalishida sintaktik usulning ishtiroki katta. Bu kabi terminlar orasida sintaktik aloqa saqanib, yaxlit tushunchani ifodalaydi. Deyarli barcha tillar terminologik tizimlarida birikma tipidagi terminlar miqdor jihatdan salmoqli o‘rin egallaydi. Mazkur holat esa terminologiyaga oid izlanishlar ham isbotlaydi [4;15-b.]. Ish yuritishga oid terminlar terminologik tizimi uchun ikki asosiy tendensiya mavjud, ya’ni, birikma terminlardan foydalanish va terminlarning qisqartma shakllarini keng qo‘llash. Bu ikki xususiyat, bir-biriga zid bo‘lsa ham soha terminologik tizimida mavjud bo‘lgan muayyan qonuniyatlarni aks ettiruvchi qarama-qarshiliklarning birligini tashkil etadi. Bunday ziddiyat birikma terminlar orqali nomlanadigan tushunchalarning murakkabligi bilan hamda ushbu tushunchalarni ifodalash uchun til elementlarini qisqartirish orqali kommunikatsiya jarayonini tezlashtirishga bo‘lgan ehtiyoj bilan izohlash mumkin. O‘zbek va ingliz tillari ish yuritish terminologik tizimidagi bu kabi qo‘shma (birikma) terminlarning yuzaga kelishini quyidagi ikki tipda tavsiflash mumkin.

**Qo‘shma terminlarning yuzaga kelish tiplari.** Birikma tarzidagi terminlar muayyan yangi tushunchani ifodalab, ushbu birikmani tashkil etgan qismlarining abstraktlik xususisyati zaiflashadi va qismlar ma’nosi aniqlik tomon siljiydi.

| **O‘zbek tili** | **Ingliz tili** |
|---|---|
| *lavozim yo‘riqnomasi, marketing tizimi, virtual qabulxona, matbuot byurosi, mehnat haqining eng kam miqdori, muddati kechiktrilgan to‘lov, nazorat qiluvchi organlar, nominal ish haqi, notarial harakatlar, omonat jamg‘armasi, onlayn to‘lov, onlayn so‘rov, qimmatbaho qog‘ozlar bozori, raqamli axborot, soliq deklaratsiyasi, soliq to‘lovchining identifikatsiya raqami, taftish dalolatnomasi, tashqi iqtisodiy faoliyat, tashkiliy hujjatlar, ta’tillar grafigi* | *job instruction, marketing system, virtual office, press bureau, minimum wage, delayed payment, regulatory authorities, nominal salary, notarial acts, savings fund, online payment, online request, securities market, digital data, tax declaration, taxpayer identification number, audit report, foreign economic activity, organizational documents, vacation schedule* |

• Umumiy ma’noni ifodalaydigan terminlar birikma tarzda qo‘llanganda, u ifodalaydigan tushuncha ma’no torayishiga uchraydi.

| | |
|---|---|
| **hujjat** – *me’yoriy-huquqiy hujjat, trafaret hujjatlar, vaqtincha saqlanadigan hujjat, xususiy hujjat, veb-hujjat*; | document – *normative legal document, standardized documents, temporarily stored document, private document, web document*; |
| **bayonnoma** – *majlis bayonnomasi, sud majlisi bayonnomasi, to‘liq majlis bayonnomasi;* | protocol – *meeting protocol, court session protocol, full meeting protocol*; |
| **valuta tizimi** – *milly valuta tizimi;* | currency system – *national currency system*; |
| **soliq**– *aromad solig‘i, mol-mul solig‘i;* | tax – *income tax, property tax*; |
| **shartnoma** – *mualliflik shartnomasi, mehnat shartnomasi, oldi-sotdi shartnomasi, pudrat shartnomasi, sug‘urta shartnomasi, xalqaro shartnoma;* | contract – *copyright agreement, employment contract, sale and purchase agreement, sales contract, construction contract, insurance contract, international agreement*; |
| **hisobot** – *raqamli hisobot;* | report – *digital report*; |
| **xat** – *rasmiy xat, so‘rov xat, tushuntirish xati, shikoyat xati, da’vo xati;* | letter – *official letter, request letter, explanation letter, complaint letter, claim letter*; |
| **guvohnoma** – *tug‘ilganlik haqida guvohnoma, xizmat safari guvohnomasi, xizmat guvohnomasi, vafot etganlik haqida guvohnoma.* | certificate – *birth certificate, business trip certificate, employee ID, death certificate.* |

**Tadqiqotchilar ingliz tilidagi qo‘shma so‘z (termin)larni yasalishida** quyidagi uchta asosiy tip mavjud ekanligi ta’kidlaydi [2]. **Endosentrik qo‘shma so‘zlar (Endocentric compound)** – bu turdagi qo‘shma so‘zlarda umumiy ma’no asosiy komponent(lar)ga tayanadi. Ya’ni, qo‘shma so‘zning o‘zi shu komponentlardan biri bilan almashtirilganda ham ma’no saqlanib qoladi (*toothbrush* (tish cho‘tkasi) – bu “brush”ning bir turi). **Ekzosentrik qo‘shma so‘zlar (Exocentric compound)** – bunday qoshma so‘zlarda umumiy ma’no tarkibiy qismlar orqali to‘g‘ridan-to‘g‘ri ifodalanmaydi, ya’ni ma’no komponentlar doirasidan tashqarida bo‘ladi (*pickpocket* (o‘g‘ri) – bu so‘z “pick” va “pocket” so‘zlaridan yasalgan, lekin butun so‘z yangi, alohida ma’noni bildiradi). **Kopulativ qo‘shma so‘zlar (Copulative compound)** – bu turdagi murakkab so‘zlarda ikkala komponent ham teng huquqli va birgalikda bitta tushunchani bildiradi (*bitter-sweet* (achchiq-shirin), *deaf-mute* (kar-soqov) va h.

**Ish yuritish** sohasiga oid qo‘shma terminlarning ham **endosentrik, ekzosentrik** va **kopulyativ** turlari asosida yasalgan **ingliz tilidagi terminlar mavjudligi aniqlandi. Ular quyidagicha:**

**1. Endosentrik qo‘shma terminlar** (Endocentric compounds)

| Termin | Yasalishi | Ma’nosi |
|---|---|---|
| **file folder** | folder (aniqlanmish) + file (aniqlovchi) | fayllar uchun papka |
| **office manager** | manager (aniqlanmish) + office (aniqlovchi) | ofis boshlig‘i |
| **data entry** | entry (aniqlanmish) + data (aniqlovchi) | ma’lumot kiritish |
| **record book** | book + record | qaydlar kitobi |
| **meeting room** | room + meeting | yig‘ilish xonasi |
| **signature line** | line + signature | imzo uchun chiziq |

**2. Ekzosentrik qo‘shma terminlar** (Exocentric compounds)

| Termin | Yasalishi | Ma’nosi |
|---|---|---|
| **undersecretary** | under + secretary | kotib yordamchisi / ikkinchi darajali kotib |
| **overseer** | over + seer | nazoratchi / boshqaruvchi |
| **paper-pusher** (informal) | paper + pusher | hujjatlar bilan ishlovchi byurokrat (salbiy ma’no) |
| **white-collar** | white + collar | ofis xodimi (ish joyini emas, kasb turini bildiradi) |
| **deadline** | dead + line | topshirish muddati (real “dead” yoki “line” emas) |

3. **Kopulyativ qo‘shma terminlar** (Copulative compounds)

| Termin | Yasalishi | Ma’nosi |
|---|---|---|
| **secretary-treasurer** | secretary + treasurer | kotib va g‘aznachi vazifalarini birlashtirgan shaxs |
| **writer-editor** | writer + editor | yozuvchi va muharrir |
| **owner-operator** | owner + operator | mulk egasi va uni boshqaruvchi |
| **buyer-seller** | buyer + seller | savdo (ikkala tomon) kontekstida |
| **judge-arbitrator** | judge + arbitrator | sudya va hakamlik vazifasini bajaruvchi |

“Ish yuritish terminlarining qisqacha izohli lug‘ati”da endosentrik, ekzosentrik qo‘shma terminlardan tashqari kopulyativ xarakterdagi qo‘shma terminlar mavjudligini ham kuzatdik. Masalan: *fors-major, hisob-kitob, hisob-kitob bo‘limi, hisob-kitob daftarchasi, hisob-kitob cheki, huquq-tartibot, ko‘rik-tanlov, mol-mulk, nou-xau, oldi-berdi, oldi-sotdi shartnoma, press-byuro, press-konferensiya, seminar-trening, yozma xat-xabar, kirim-chiqim* va h.k.

**Xulosa.** Ish yuritishga oid ikki va undan ortiq so‘zlardan iborat ko‘p komponentli birikma terminlar ham o‘rganilayotgan o‘zbek va ingliz tillari ish yuritish terminologik tizimida ko‘p uchraydi. Bunday qo‘shma terminlarning aksariyati terminologlar tomonidan “**predterminlar” (termin bo‘lib shakllangunga qadar nomlanishi – Y.Sh.)** deb atalmoqda [11;304-b.]. Dastlab, D.S.Lotte tomonidan ushbu hodisaga e’tibor berilib, uni **yarimtermin** (polutermin) deb atagan [12;889-b.]. Chunki ular aniq ilmiy tushunchani uning aniq belgilariga ko‘ra emas, balki faqatgina shu tushuncha haqida umumiy tasavvurni ifodalovchi birliklarga tayanib shakllantiradi. S.V.Grinyov-Grinevich fikriga ko‘ra, **predterminlar** “yangi shakllangan tushunchalarni nomlash uchun termin sifatida qo‘llaniladigan, biroq terminlarga qo‘yiladigan asosiy talablarga (eng ko‘p uchraydigani – ixchamlik talabi) javob bermaydigan maxsus leksik birliklar”dir [10;4-b.]. Predterminlar qo‘shma termin bo‘lib shakllanganda funksional jihatdan axborotni ixchamlashtirishga, ya’ni, kamroq leksik birliklar yordamida ko‘proq ma’lumot uzatishga yo‘naltirilgan bo‘lishi talabiga javob berishi maqsadga muvofiq bo‘ladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

(1). Bauer L. Introducing linguistic morphology (2nd ed.). Edinburgh: Edinburgh University Press, 2003.

(2). Haspelmath M.&Sims A.D. Understanding morphology (2nd ed.). London, Hodder Education, 2010.

(3). O’Grady W., Dobrovolsky M., & Katamba F. Contemporary linguistics: An introduction. London, Longman, 1996; Katamba F. Morphology. New York, St. Martin’s Press, 1993.

(4). Мадвалиев А.Р. Узбекская химическая терминология и вопросы его нормализации. Дисс.....канд. филолог.наук, Ташкент, 1986.

(5). Sadinova N. O‘zbek tili ish yuritish terminologiyasi. Filol.f.b.f.d. diss., Toshkent, 2020.

(6). Садыкова А.Г. Система субстантивного словосложения в тюркских и германских языках в сравнительно-типологическом аспекте. Дисс.....доктора филолог. наук, Казань, 2002, с. 71–72.

(7). Yuldashev I.J. O‘zbek kitobatchilik terminologiyasi: shakllanishi, taraqqiyoti va tartibga solish. Filol. fan. d-ri... diss. avtoref., Toshkent, 2005.

(8). Аржанценва Н.В. Сложные слова со вторым компонентом-отглагольным существительным в немецком и английском языках и их соответствия в русском языке. Дисс.канд.филол.наук, Казань, 2004, 214 с.

(9). Арнольд И.В. Лексикология современного английского языка. Изд-е 2-е, перераб., М., “Флинта”, “Наука”, 2012, 376 с.

(10). Гринёв-Гриневич С.В. Терминоведение. Учеб. пособие для студ. высш. учеб. заведений, М., Издательский центр «Академия», 2008, 304 с.

(11). Лейчик В.М. Терминоведение: предмет, методы, структура. Изд-е 3-е. М., Издательство ЛКИ, 2007.

(12). Лотте Д.С. Очередные задачи технической терминологии // Известия Академии наук СССР, М., “Наука”, 1931, с. 889.

(13). Маковей Р.Г. Интерпретация сложных слов в науке. “Вестник Харьковского национального автомобильнодорожного университета”, 2007, № 39, с. 15–17.

(14). Михайлова К.В. Особенности формирования физической терминологии в английском и русском языках: на примере лексико-семантического поля «физика элементарных частиц». Дисс. канд.филол.наук, Казань, 2008, 205 с.

(15). Реформатский А.А. Введение в языкознание. М., “Высшая школа”, 1982, 324 с.

(16). Чунтомова Ю.А. Английская транспортная терминология. Автореф. канд.филол.наук, Москва, 2004, –17 с.

**Avazberdiyeva Bahora Alijon qizi (Navoiy davlat universiteti O‘zbek tili va adabiyoti yo‘nalishi talabasi; bahoraavazberdiyeva@gmail.com; ORCID: https://orcid.org/0009-0009-3107-6570)**

## O‘ZBEK XALQ MAQOLLARIDA SHAXS NOMLARINING QO‘LLANISHI

***Annotatsiya.*** *Mazkur maqolada o‘zbek xalq maqollarida uchraydigan shaxs nomlari hamda ularning semantik ma’no ko‘lami va lingvokulturologik xususiyatlari tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida shaxs nomlari nafaqat insonni, balki ijtimoiy holat va tarixiy tasavvurni ifodalovchi vosita sifatida xizmat qilishi aniqlandi.*

***Kalit so‘zlar:*** *maqol, shaxs nomi, folklor, semantika, lingvokulturologiya.*

**Авазбердиева Бахора Алижон кизи (студентка направления «Узбекский язык и литература» Навоийский государственный университет; bahoraavazberdiyeva@gmail.com; ORCID: https://orcid.org/0009-0009-3107-6570)**

## УПОТРЕБЛЕНИЕ ЛИЧНЫХ ИМЕН В УЗБЕКСКИХ НАРОДНЫХ ПОСЛОВИЦАХ

***Аннотация.*** *В данной статье анализируются личные имена, встречающиеся в узбекских народных пословицах, а также их семантический диапазон и лингвокультурологические особенности. В ходе исследования было установлено, что личные имена выступают не только средством обозначения человека, но и служат языковым средством выражения социального положения и исторического представления.*

***Ключевые слова:*** *пословица, личное имя, фольклор, семантика, лингвокультурология.*

**Avazberdiyeva Bahora Alijon qizi (Student of the Uzbek Language and Literature program at Navoiy State University; bahoraavazberdiyeva@gmail.com; ORCID: https://orcid.org/0009-0009-3107-6570)**

## THE USE OF PERSONAL NAMES IN UZBEK FOLK PROVERBS

***Annotation.*** *This article analyzes personal names found in Uzbek folk proverbs, as well as their semantic range and linguocultural characteristics. The study revealed that personal names function not only as a means of identifying a person, but also as a linguistic device expressing social status and historical perception.*

***Keywords:*** *proverb, personal name, folklore, semantics, linguoculturology.*